

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA KASB VA HUNAR MAVZUSIGA NAZARIY YONDASHUV

Temirova Nilufar

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani

23-umumta'lim maktabining

texnologiya fani o'qituvchisi

Bugungi kunda ta'lim ta'lim tizimi o'quvchini faqat nazariy bilim bilan emas, balki amaliy ko'nikma, texnik tafakkur va mustaqil ishlash madaniyati bilan qurollantirishni talab etadi. Raqamli iqtisodiyot, sanoatning modernizatsiya va kasblarning tezkor yangilanishi sharoitida o'quvchilarning qo'l mehnati orqali amaliy tajriba orttirishi - ularning kelajakdagikasbiy shakllanishida hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Shu jihatdan Texnologiya fani ta'lim jarayonining eng amaliy, eng ko'p kompetensiya shakllantiruvchi va o'quvchini real hayotga tayyorlovchi fanlardan biri hisoblanadi. Texnologiya fani mazmuni orqali o'quvchi turli materiallar bilan ishlashni, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni, oddiydan murakkabgacha bo'lgan texnik jarayonlarni anglashni hamda ularni amalda qo'llashni o'rganadi. Bu fan orqali shakllanadigan mashina va mexanizmlarhaqidagi tasavvur, o'lchov aniqligi, loyihalash, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, texnik madaniyat va mehnat intizomi kabi ko'nikmalar boshqa fanlar o'rtasida noyob integrativ o'rin tutadi. Shuningdek, texnologiya fanining bugungi ta'limdagi o'rni bir necha omillar bilan belgilanadi:

1. Amaliy kompetensiyalarni shakllantiradi.

O'quvchi real buyum yaratadi, jarayonlarni ko'radi, his qiladi va natijani qo'li bilan tekshiradi. Bu kompetensiyalar yoshlarning o'ziga bo'lgan ishinchini oshiradi.

2. Mehnatga ongli munosabatni tarbiyalaydi

Texnik jarayonlarni tartibli, xavfsiz va sifatli bajarish orqali o'quvchi mehnatning qadri, texnik madaniyati va mas'uliyatni chuqur anglaydi.

3. Kasbga yo'naltirishda asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi

Murakkab bo'lmagan amaliy ishlarning o'zi ham o'quvchida muhandislik, dizayn, tikuvchilik, duradgorlik, IT texnologiyalar kabi yo'nalishlarga qiziqishni uyg'otadi.

4. Maktab va hayot o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi.

O'quvchilar kundalik hayotda uchraydigan buyumlar – mebel , tikuv mahsulotlari, qadoqlash, bezak, ustaxonadagi xavfsizlik kabi jarayonlarni ilmiy asosda o'rganadi.

Texnologiya fani darsligi insonlar hayotida muhim muhim o'rin tutuvchi amaliy texnologiya faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishga yordam beruvchi muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. O'quvchilar voyaga yetib qaysi kasbni egallashmasin, kim bo'lmasin, texnologiya fanidan olgan bilim va ko'nikmalarini uyda , oilada , ish faoliyatida, albatta foydalanadi. O'quvchilarni texnologiya darsida texnik ijodkorligini, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metal va metallmas materiallarga ishlov berish usullarni o'rgatish orqali kasb – hunarga yo'naltirish ko'zda tutilgan . texnologiya faniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish orqali ta'lim samaradorligini oshirishda electron axborot resurslarining ham katta ahamiyati bor.

Asosiy qism: Inson o'z ehtiyojlarini eng avvalo oziq – ovqat, boshpana, kiyim-kechaklarga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan boshlagan. Keyinchalik yangi sivilizatsiyalar paydo bo'lgach, ya'ni insoniyat madaniyatlashib brogan sayin o'z ehtiyojlariga zarur bo'lgan narsalarni ishlab chiqa boshlagan. Bu esa o'z o'rnida shu sohadagi kasb egalarini paydo bo'lishiga olib kelgan.

Kasb- inson inson ish faoliyatining ma'lum tajriba , tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, hisoblanadi. Ba'zi olimlar kasb bu inson ijtimoiy faoliyat turi bo'lib, moliyaviy to'qlik yoki yetishmovchilik uning natijasidir deb aytsalar, yana boshqalari kasb

tushunchasini insonning bilim darajasi, dundunyoqarashiga bog'liq jarayon deb qaraydi. Gurevich. K.M kasblarni paydo bo'lishini va shakllanishini quyidagicha ko'rsatadi.

1. Mehnat taqsimotini yuzaga kelishi bilan
2. Fan-texnikani paydo bo'lishi bilan bog'liq
3. Farmatsiyalarning o'zgarib borishi bilan


Ayni shulardan kelib chiqib, kasb maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni puxta egallagan, unga jismoniy imkoniyat va aqliy qobiliyat hamda yuridik huqularni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining bir turidir deyish mumkin. Lug'aviy jihatiga nazar tashlasak, kasb so'zi arab tilidan kirib kelgan. Hamda kasaba fe'lining o'zagi sanalishini bilib olish mumkin. Kasb shunchaki faoliyat turi emas, balki, bir xil faoliyat turi bilan bog'liq kishilarning birlashmasini tashkil qiladi.

E.A.Klimov o'zining ilmiy qarashlarida kasb tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Kasb- jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab qilinadi, bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi."

V.G.Makaushunning fikricha sa , kasb bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi deydi.

Kasb va mutaxassislik tushunchasi

Kasb haqida so'z borar ekan, kasb va mutaxassislik tushunchalari orasida ma'lum tafovut mavjudligini aytib o'tish joiz. Ularning farqi shuki, kasb mutaxassislikka nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, kasbiy salohiyatidan tashqari uning muhim sifatlari ijtimoiy-kasbiy salohiyat, kasbiy avtonimiya,o'zini o'zini nazorat qilish,guruhli mezonlar va qobiliyatlar sanaladi. Ayni shularni umumlashtirib, kasbga yaqin mutaxassisliklarni tashkil qiladi.. masalan, shifokorlik kasbi misolida aniqlik kiritamiz.



Demak mutaxassislik kasbiy ta'lim, tayyorgarlik yo'li bilan ish jarayonida maxsus bilimlar, ko'nikmalar va malaka kompleksi bo'lib ular u yoki bu kasb doirasida ma'lum faoliyat turini bajarmoqlik sanaladi.

Mutaxassislik- kasb ichidagi faoliyat turi bo'lib, u shasiy yutuqlarga yoki o'ziga xos vaziyatlar orqali umumiy natijalarga erishishga qaratilgan bo'ladi.

Xulosa.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, kasb tanlash kelajak tanlovi ekanini o'quvchilarga kasb haqidagi nazariy ma'lumotlar berish jarayonida to'g'ri tushuntirib o'tish lozim. Chunki kelajakda ular biror kasb egalari bo'lishi barobarida Vatan va xalq uchun kerakli kadrlar,

ma'lum sohaning rivojlanishida hissa qo'shuvchi malakali kadr sanaladi. Shu bois ham, o'quvchilarda kasb haqidagi nazariy ma'lumotlarni imkon qadar hayotiy tushunchalar bilan bog'lab tushuntirish hamda dars mashg'ulotlarida mavzu doirasdagi munosib innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ko'rgazmali qurollardan kerakli o'rinlarda foydalanish juda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'.O.Toxirov, M.M.Maksimova . texnologiya. 8- sinf uchun darslik.2019
2. Muslimova . N.A. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. Toshkent.2007
3. N.A.Muslimov Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi. Darslik.2014
4. Jo'rayev R.X Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb – hunar yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari.m monografiya 2015